YANGI O‘ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya MATERIALLARI

CURRENT ISSUES, SOLUTIONS, AND PROSPECTS OF PHILOLOGICAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

International Theoretical and Scientific Conference PROCEEDINGS

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПУТИ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Международная научно-теоретическую конференцию МАТЕРИАЛЫ

24-oktabr, 2025

TALABALAR BILIMINI OSHIRISHDA JAHON ADABIYOTINING O‘RNI

Usmonova Ruzixon Bozorovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon adabiyotining talabalarning bilim doirasini kengaytirish, tafakkurini boyitish hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Jahon adabiyoti namunalarini o‘quv jarayoniga joriy etish orqali talabalar ilmiy-nazariy bilimlarini mustahkamlash, badiiy-estetik didini shakllantirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada chet el adabiyoti namunalarini o‘rganish jarayonida milliy adabiyot bilan qiyosiy tahlil olib borishning samarali metodlari, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va o‘zbek adabiy merosiga qiziqishni oshirish mexanizmlari yoritilgan. Jahon adabiyoti nafaqat madaniy boylik, balki talabalarni intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil ekanligi ilmiy asoslar bilan isbotlab beriladi.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti, ta’lim samaradorligi, talabalar, badiiy tafakkur, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijodiy salohiyat, qiyosiy tahlil, tanqidiy fikrlash, adabiy meros, estetik tarbiya.

Annotation. This article analyzes the role of world literature in broadening students’ knowledge, enriching their thinking, and fostering education in the spirit of national and universal values. Introducing samples of world literature into the educational process contributes to strengthening students’ theoretical knowledge, developing their artistic and aesthetic taste, and enhancing their creative potential. The article also highlights effective methods of comparative analysis between foreign and national literature, the formation of critical thinking skills, and the mechanisms of increasing students’ interest in the Uzbek literary heritage. It is proved on a scientific basis that world literature is not only a cultural treasure, but also an important factor in shaping students into intellectually and spiritually mature individuals.

Keywords: World literature, educational effectiveness, students, artistic thinking, national and universal values, creative potential, comparative analysis, critical thinking, literary heritage, aesthetic education.

Аннотация. В данной статье анализируется роль мировой литературы в расширении кругозора студентов, обогащении их мышления и воспитании в духе национальных и общечеловеческих ценностей. Введение образцов мировой

литературы в образовательный процесс способствует укреплению теоретических знаний студентов, формированию их художественно-эстетического вкуса и развитию творческого потенциала. Кроме того, в статье рассматриваются эффективные методы сравнительного анализа зарубежной и национальной литературы, формирование у студентов критического мышления, а также механизмы повышения интереса к узбекскому литературному наследию. Научно обосновано, что мировая литература является не только культурным богатством, но и важным фактором формирования студентов как интеллектуально и духовно зрелых личностей.

Ключевые слова: Мировая литература, эффективность образования, студенты, художественное мышление, национальные и общечеловеческие ценности, творческий потенциал, сравнительный анализ, критическое мышление, литературное наследие, эстетическое воспитание.

Badiiy adabiyot inson ma’naviyati shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, jahon adabiyoti talaba-yoshlar tarbiyasida ikkiyoqlama xususiyatga ega bir tarafdan san’at hodisasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakllaridan biri sanaladi. Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o‘zining “faoliyati” yo‘naltirilgan predmetni (keng ma'noda borliqni) o‘z ongida o‘zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi. Zero, adabiyot real voqelikni bevosita emas, bilvosita – dunyoni o‘zgartiruvchini, shaxsni o‘zgartirish orqali amalga oshiradi. Badiiy adabiyot ijtimoiy ong sohasiga mansubligi uchun, uning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o‘ziga xosligini anglash muhim hisoblanadi. Jahon adabiyoti xalq hayotining ma’um tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq voqealarini o‘zida aks ettiradi. Har bir badiiy asar ma’lum zamon va makonda sodir bo‘lgan voqealar tizimidan iborat holda maydonga keladi. Adabiyotning eng qadimgi shakllari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi va u, tabiiyki, xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘langandir. Yevropada yozma adabiyot namunalari Qadimgi Yunon madaniyati ta’sirida vujudga kelgan. Talabalarga bu haqida bilim berishdan oldin, har qanday asarning ijtimoiy hayot, kishilarning fikrlash tarzi, mehnat munosabatlari bilan aloqasini kengroq yoritib berish talab etiladi. Qadimgi yunon adabiyotining asosini miflar tashkil etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar har qanday hodisaga ilohiy tus berishga odatlanib qolgandilar. Dengizdagi to‘fonlarni Poseydon, osmon jismlari bilan bog‘liq hodisalarni Zevs, qahramonliklarni Gerakl singari xudo va ma’budlarning xatti-harakatlari, kayfiyatlari bilan o‘lchash bu davr kishilari uchun tabiiy hol hisoblangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, milliy g‘ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, tarixi, dini, adabiyoti, san’ati, rasm-rusumlari, urf-odatlari, bayramu-sayillari, madaniy-ma’naviy merosi, insoniy fazilatlari, hislatlarining yig‘indisidir. Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Milliy qadriyatlar millatning o‘tmishi va buguni bilan bog‘liq. Shuning uchun ham “milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shu sababdan millat o‘zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib boradi. Milliy qadriyatlar o‘sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko‘rsatkichdir.

Dunyoda har bir millat va xalqning o‘zligini anglashi va asrashi, sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar keng ko‘lamda rivojlana boshladi. Bu jarayon uzoq mintaqalar adabiyotlari o‘zaro ta’sirining kuchayishiga, jahon madaniyatining sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi va qaysidir ma’noda, yangi adabiyotlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Zamonga qarab o‘zgarib turadigan bu yangilanish adabiy jarayonda to‘liq ro‘yobga chiqdi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Q.Nazarov “**qadriyat**-voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”[1.56] - deya ta’riflaydi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo‘lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, o‘zaro hurmat, birodarlik, bag‘ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e’zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo‘shib boyitilishi, rivojlantirilishi kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

M Farmonova fikricha “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat

qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”[3.36]. Talabalar jahon adabiyotini o‘rganishlari asosida o‘zga millat taqdiri va o‘tmishini tahlil etish asnosida o‘z millatini qadriyatini anglaydi. Ularda milliy iftixor vujudga keladi.

A. Jalolov, Q.Xonnazarovlarning ta’kidlashicha, “qadriyatlar-jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”[4.279]. Q. Nazarov qadriyat kategoriyasini turlicha talqin qiladi. Ya’ni, “qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha” - ekanligini asoslaydi. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”[2.83]. Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, talabaning qadriyati vijdoni va vazifalariga ongli ravishda bajarishida namoyon bo‘lsa, uning ma’naviy kamoloti ham o‘z-o‘zini tarbiyalashga yo‘naltiriladi. Qadriyat bu – inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov Q. Aksiologiya. qadriyatlar falsafasi.– T.:1998.
2. Nazarov Q. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
www.ziyouz.com.kutubxonasi
3. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019.
4. Jalolov A., Xonnazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati.– T.: “Sharq”, 1998.
5. Nazarov Q. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: 2010.

176.	Бобокулова, О. ҲИЖРОН МОТИВИДА ЭСТЕТИК ГЎЗАЛЛИК. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442027	1099
177.	Bayzakov, J. ROMAN BADIIYATI VA JANR GENEZESI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442035	1104
178.	Nasirova, G. BOLANING ICHKI DUNYOSI – BADIY ASARLARDA IFODALANISH. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442044	1109
179.	Muxammedova, N. SARA KUIGLINING "DIRIJYOR" ROMANIDA UNUTILGAN QAHRAMON OBRAZI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442058	1114
180.	Pulatova, F. YETTI RAQAMINING YETMISH XIL MO'JIZASI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442074	1118
181.	Kuchkorov, H. TRANSFORMATION OF LINGUOPOETIC MEANS IN THE TRANSLATION PROCESS: LINGUISTIC AND AESTHETIC ASPECTS. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442084	1125
182.	Alimova, D. ODA VA QASIDANING FAXRIYA SHERLARI BILAN MUNOSABATI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442095	1133
183.	Allashev, A. THE LITERARY PORTRAYAL OF SOCIAL CONFLICTS. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442107	1142
184.	Анниёзов, С. САТИРА НА БЮРОКРАТИЮ В «РЕВИЗОРЕ» Н. В. ГОГОЛЯ И ЕЁ АКТУАЛЬНОСТЬ СЕГОДНЯ. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442113	1147
185.	Iskandarova, N. CARYL CHURCHILL: THE MOST INVENTIVE PLAYWRIGHT OF BRITISH DRAMA. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442127	1152
186.	Usmonova, R. TALABALAR BILIMINI OSHIRISHDA JAHON ADABIYOTINING O'RNI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442132	1161
187.	Sadinova, M. "HAYOT" VA "O'LIM" KONSEPTINING ISPAN VA O'ZBEK MADANIYATIDA TURLICHA TALQIN QILINISHI ("Yolg'izlikning yuz yili" romani va "Dunyoning ishlari" qissasi misolida). https://doi.org/10.5281/zenodo.17442136	1165
188.	Xujaniyazova, Z. TARJIMON MAHORATI – TARJIMADA MUHIM OMIL. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442142	1170
189.	Ahmadova, O. ZAMONAVIY ADABIYOTDA INSON RUHIYATI: PSIXOLOGIK PROZANING BADIIY-ESTETIK TAHLILI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442144	1178
190.	Akabirova, M. LITERARY THEORY AND CRITICAL THINKING: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442156	1182
191.	Jumanov, A. ZAMONAVIY SHE'RIYATDA AN'ANA VA NOVATORLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442166	1188
192.	Nabiyeva, Z. INGLIZ RITSARLIK ROMANI "SIR ORFEO" VA O'ZBEK XALQ DOSTONI "KUNTUG'MISH" AN'ANALARIDA SEVGI, SINOV VA TIKLANISH MOTIVLARINING BADIIY TALQINI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442174	1196
193.	Nazarova, D. ADABIY PORTRETDA IJODKOR OBRAZINING IFODALANISHI. https://doi.org/10.5281/zenodo.17442181	1203